https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Narmatova Fotima Dilshod qizi

GulDU 1-kurs doktarant

Sirdaryo villoyati Guliston shahri

MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya. Bolalar nutqi rivojlanishi tarbiya turlarining har qaysisi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda multimedia texnologiyalari sosida pedagogik faoliyatlarni samarali tashkil etishda asosiy vositaga aylangan. Xususan, ushbu maqolada animatsiyali, tasvirli, ovozli dasturiy materiallardan foydalanish bolalarning diqqatini, e'tiborini jalb qilish, so'z boyligini oshirish va nutq kompetensiyasini mustahkamlash imkonini beruvchi multimediali ta'lim haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: multimedia, nutq, rivojlantiruvchi markaz, jonli mushohada, virtual ekskursiya.

Foydalanilgan metodlar: adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, so'rovnoma, intervyu.

Natijalar: maktabgacha yoshdagi bolalar so'z boyligi oshadi, erkin muloqot ko'nikmasi shakllanadi, rasmlar, animatsiyalar ketma-ketlik asosida qisqa hikoya qilish qobiliyati rivojlanadi,diologik nutq takomillashadi, tinglab tushunish kompetensiyasi rivojlanadi.

Inson paydo bo'libdiki, yashash uchun atrof-muhit va undagi mavjudotlar bilan muloqotga ehtiyoj sezgan. Uning bu jarayonda, bevosita, nutqqa ehtiyoji bo'lgan. Uning nutqi erta bolalikdan paydo bo'ladi va butun umri davomida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

rivojlanib boradi. Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar doirasida barkamol shaxsni shakllantirishning eng muhim va poydevor bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ–4312-son qarori asosida “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Mazkur konsepsiyada mamlakatimizda maktabgacha ta’limni rivojlantirishning asosiy maqsad va vazifalari, ustuvor yo‘nalishlari, o‘rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlari belgilab berildi hamda sohaga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqildi.[1,2]

Konsepsiyada belgilangan dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda, inson hayoti davomida egallaydigan bilim va axborotlarning qariyb 70–80 foizi aynan maktabgacha yosh davrida (3–7 yosh) shakllanishi ilmiy jihatdan asoslangan. Mazkur holat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan pedagog-tarbiyachilar zimmasiga yuksak mas’uliyat yuklaydi. Chunki aynan ushbu davrda bolaning nutqi, tafakkuri, ijtimoiy moslashuvi, bilishga bo‘lgan qiziqishi va muloqot ko‘nikmalari jadal rivojlanadi.[2]

Maktabgacha ta’lim umuman olganda, uzluksiz ta’limning birinchi bosqichi hisoblanib, u maktabda o’qish uchun tayyor bo’lgan sog'lom va to’laqonli shaxs sifatida shakllangan bolani tarbiyalashni ko’zda tutadi.

Bolani maktabda muvaffaqqiyatli ta’lim olishga tayyorlash uchun unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratish zarur. Maktabgacha ta’lim tashkilotining asosiy vazifalaridan biri bolalarning o’z xalqining badiiy tilini o’zlashtirib olishlari natijasida ularning to’g’ri, og’zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir. Bolalarni bunday muvaffaqqiyatli maktabga

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tayyorlashning , nutqini rivojlantirishning eng asosiy va natijaviy usullaridan biri bu- multimediya vositalaridan samarali foydalanishdir.

Nutq bilish jarayonlari va muloqotning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, o'qish faoliyati, imlo savodxonligi hamda yozma nutqning to'g'ri shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan mana shu bilish jarayonining asosi bo'lmish jonli mushohada, insonni fikrlash, olam sirlarini osonlik bilan idrok etish, ularni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. [6]


Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida, nutq o'stirish, matematika, savodga tayyorlash, ikkinchi til, jismoniy tarbiya va musiqa kabi umumiy mashg'ulotlar hamda har bir yosh guruhlari uchun 5ta rivojlantiruvchi markazlar tashkil qilingan. Bular:

1. Til va nutq markazi
2. Qurish yasash, konstruksiyalash va matematika markazi
3. San'at markazi
4. Syujetli - rolli o'yinlar va dramalashtirilgan markaz
5. Fan va tabiat markazi [3]

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda ta'lim-tarbiya jarayonini multimedia vositalari va raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etish qiyin. Maktabgacha ta'lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish bolalarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi, o'quv faoliyatining samaradorligini oshiradi hamda pedagog va tarbiyalanuvchilar uchun qulay pedagogik muhit yaratadi. Bo'lajak tarbiyachi va o'qituvchilarning mashg'ulotlar jarayonida multimedia texnologiyalaridan maqsadli va tizimli foydalanishi bolalarni ta'lim jarayoniga faol jalb etish imkonini beradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino o‘z ta’limotlarida inson narsa va hodisalarni asosan ko‘rish (vizual), eshitish (audial), sezish (taktil), tatib ko‘rish va hidlash orqali qabul qilishini ta’kidlab, axborotning 90 foizdan ortig‘i ko‘rish va eshitish orqali o‘zlashtirilishini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Ushbu qarashlar maktabgacha ta’lim jarayonida ko‘rgazmalilik va multimediya vositalarining ahamiyatini yanada oshiradi.[5]



Bolalarning zamonaviy axborot texnologiyalariga bo‘lgan yuqori qiziqishini inobatga olgan holda, nutqni rivojlantirish mashg‘ulotlarida multimedia imkoniyatlaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, multimediyali taqdimotlar orqali predmet va hodisalar yorqin, rang-barang shaklda namoyish etiladi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarda ranglar, shakllar, tovushlar va harakatlar haqidagi tasavvurlarni boyitadi. Musiqali va harakatli

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

didaktik o‘yinlar orqali bolalarda ritmni his qilish, musiqiy ohanglarni farqlash, eshitish xotirasini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.[4]

Bolalarning har bir ko‘rgan va eshitgan axborotni jonli mushohada qilishi natijasida ularning tasavvur doirasi kengayadi, lug‘at boyligi oshadi, muloqotga kirishish ko‘nikmalari shakllanadi. Natijada bolalarning og‘zaki nutqi izchil rivojlanib boradi. Shu jihatdan, multimedia texnologiyalari nutqni rivojlantirishda samarali pedagogik vosita sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida nafaqat maxsus kompyuter dasturlaridan, balki turli internet manbalaridan ham foydalanish bolalar nutqini rivojlantirish, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, virtual ekskursiyalar bolalarning qiziqishini oshiruvchi samarali innovatsion metodlardan biri hisoblanadi.

Virtual ekskursiyalarni tashkil etishda ularning mavzusi bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, shuningdek, kalendar-tematik rejalashtirish asosida tanlanadi. Tarbiyachi ekskursiya obyektlarini oldindan batafsil o‘rganib chiqadi, video ketma-ketlik asosida ekskursiya yo‘nalishini tuzadi, izohli matn tayyorlaydi hamda ushbu matn asosida “yo‘lboshchi” ovozi bilan audio yozuv tayyorlanadi. Virtual ekskursiya yakunida savol-javoblar orqali bolalarning ko‘rgan va eshitganlari yuzasidan fikrlari aniqlanadi, ularning nutqiy faolligi rag‘batlantiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan „Temuriylar tarixi muzeyi”[1] virtual ekskursiya orqali Amir Temur haqida tasavvurlari, o’sha davrga oid narsalar, kiyinish uslublari haqida qisqacha tasavvurga ega bo’ladilar, tarbiyachi mustahkamlash uchun quyidagi savol va topshiriqlarni beradi:

1. Bolajonlar, aytinglarchi, biz sayohatni kunning qaysi qismida uyushtirdik? Sayohat paytidagi havo harorati qanday?

[1]https://www.uzguest.uz/2020/08/26/hello-world/

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

2. Muzeyga kirishingiz bilan nimalar sizning e’tiboringizni tortdi? E’toboringizni tortgan narsalarning ranglari qanday?
3. Muzey devorlarida nimalar, qanday kasb egalari tasvirlangan? Ularning ichida Amir Temurni kim ko’ra oldi? Nima sababdan aynan uni Amir Temur deb o’yladingiz?
4. Qani kim menga Amir Temurning ko’rinishini, kiyimlarini tasvirlab beradi?
5. Tasvirlangan odamlarning kayfiyati qanaqa? Ularda qanday fasl tasvirlangan?
6. Aytinglarchi bolajonlar, muzeydagi eshiklar qanday ko’rinishda, nimadan ishlangan deb o’ylaysiz?
7. Nima uchun 1-qavatda ayrim joylarda to’siq bilan ba’zi narsalar to’sib qo’yilgan, ana o’sha to’siqlarni olib tashlasa nima bo’ladi-yu olib tashlamasa nima bo’ladi?
8. Nima deb o’ylaysiz, Devordagi barcha rasmlar fotoapparatda rasmga olingami yoki rassomlar tomonidan chizilganmi?
9. Bolajonlar, sizlarga topshiriq, siz ko’rgan muzeyingiz va undagi narsalarni qo’lingizdan kelgancha oq qog’zoga chizasiz va menga har biringiz izohlab berasiz.

Ushbu virtual ekskursiya orqali bollarning Amir Temur haqida tasavvuri, o’sha davrga xos bo’lgan o’zgacha kiyimlar va yashash tarzi haqida bolalar bir muncha ma’lumotlarga ega boladilar.

Xulosa qilib aytganda, multimedia texnologiyalari va virtual ekskursiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish, bilish jarayonini faollashtirish hamda atrof-olamni idrok etish imkoniyatlarini kengaytirishda

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

samarali yordamchi vosita hisoblanadi. Ularni ta'lim jarayoniga tizimli joriy etish maktabgacha ta'lim faoliyatlari jarayonini sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi „Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son farmoni. .www.lex.uz.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: „O'zbekiston" 2017y

3. „Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasalari uchun o'quv dasturi-Toshkent, 2018.- 69b

4. Marasulova D.N Interaktiv yondashuv asosida 5-6 yoshli bolalarga ingliz tilini o'rgatishda multimedia texnologiyalardan foydalanish. Pedagogika yo'nalishi bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun dissertatsiya.,2023y

5. Husanboyeva H. Hazratqulov M, Berdaliyeva G. Maktabgacha ta'limda badiiy matn bilan ishlash metodikasi.T.:Innovatsiya-Ziyo, 2020.-305-b

6. Olimov Sh, Samiyeva Sh, Aslanova N. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm va fan nashriyoti, 2024-115-b